



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



THE INFLUENCE OF MASS CULTURE ON THE LIFE OF SOCIETY

Oktyabrova Munisa Ulug'bek qizi¹

Urganch State Pedagogical Institute

KEYWORDS

culture, society, global, social
life, people

ABSTRACT

This article provides information about the concept of mass culture and its origin. Also, the article is devoted to the positive and negative impact of popular culture on the culture of peoples and societies in today's era of globalization.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.12679890**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of Urganch State Pedagogical Institute, Uzbekistan

OMMAVIY MADANIYATNING JAMIYAT HAYOTIGA TA'SIRI

KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Ommaviy madaniyat,
jamiyat, global, ijtimoiy
hayot, xalq

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada ommaviy madaniyat tushunchasi va uning kelib chiqishi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, maqola ommaviy madaniyatning bugungi globallashuv zamonida xalqlar, jamiyatlar madaniyatiga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'siriga bag'ishlanadi.

Ommaviy madaniyat atamasiga bugungi kunda juda ko'p marotaba duch kelamiz. Lekin, aslida bu tushuncha nimani anglatishini bilasizmi?

Ommaviy madaniyat – bu yosh avlodga qaratilgan va ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan, jamiyatning har qanday vaqt va makonida ommabop bo'lgan e'tiqodlar, qadriyatlar, harakatlar, obyektlar va amaliyotlar yig'indisidir. Bunga madaniyat, san'at, adabiyot, moda, raqs, kino, televideniya, jurnal va gazetalar tegishli bo'lishi mumkin.

Ommaviy madaniyat bir vaqtning o'zida jamiyatda hukmron bo'lgan xalq madaniyati sifatida ham tan olinadi. Amerikalik mashhur professor Barri Brummet o'zining “Ommaviy madaniyatning ritorik o'lchovlari” nomli kitobida ommaviy madaniyatni shunday tushuntirgan: “Ommaviy madaniyat jamoatchilik tomonidan eng faol ishtirok etadigan ijtimoiy hayot tomonlarini o'z ichiga oladi”.

Ommaviy madaniyatning shakllanishi uzoq davom etgan evolutsion jarayon mahsuli hisoblanadi. Dastlab insonlar tarqoq holda kichik-kichik guruhlarga bo'linib yashashgan. Tabiiyki, bunday sharoitda muayyan madaniyatning ommalashuvi ham sust kechadi. Ammo Yevropada XVIII asr oxirida industrial jamiyat asoslari qaror topib boradi, natijada qishloq aholisi shaharga ko'chib keta boshlaydi va bu jamiyat urbanizatsiyasiga olib keladi. Aynan urbanizatsiya ommaviy madaniyat shakllanishining asosiy omilidir.

Shunday qilib, urbanizatsiya, sanoatlashtirish, ommaviy axborot vositalari va texnologiyaning uzluksiz rivojlanib borishi – bularning barchasi ommaviy madaniyat shakllanishida muhim omil bo'lib qoldi. Yuqoridagi omillarning o'sib, rivojlanib borishi natijasida ommaviy madaniyatning ham qamrovi, tarkibi va ko'rinishlari kengayib bordi. Bugungi globallashuv jarayonida ommaviy madaniyat kundalik hayotimizning deyarli barcha sohalarini qamrab olmoqda. Xo'sh, ommaviy madaniyat jamiyat hayotiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda? Ko'plab tadqiqotlarda ommaviy madaniyatning faqat salbiy tomonlari o'rganilib, ijobiy tomonlari esa insoniyatning e'tibor markazidan chetda qolib ketayotganday. Shuning uchun avvalo, buning ijobiy tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ommaviy madaniyat jamiyatda xilma-xillik va inklyuzivlikni targ'ib qilishini hamda stereotiplarni buzishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek ommaviy madaniyat eski qadriyatlarga qarshi kurashib, yangilik va kreativlikka intiluvchilarni ko'paytiradi va rag'batlantiradi.

Ommaviy madaniyat bu omma ongida ijodkorlik va innovatsiyalarni erkin o'sishiga ko'maklashadi, musiqachi, rassom va yozuvchilarni yangi asarlar yaratishga undaydi va ularni ilhomlantiradi. Ommaviy madaniyat madaniy almashinuvga keng yo'l ochib beradi. U global miqiyosda tarqalib borar ekan turli turli xil madaniyatlarga mansub aholi qatlamlariga bir-birlarining urf-odatlarini, qadriyatlarini, madaniyatini va san'at turlarini o'rganish, ularni qadrlash imkonini ham berish bilan bir qatorda tolerant jamiyat barpo qilishga zamin yaratadi. Ommaviy madaniyat insonlar orasida o'yin-kulgi va stressdan xalos bo'lish manbai bo'lib xizmat qiladi, ya'ni kundalik hayot talablaridan biroz chalg'ish, qulay va munosib dam olish sharoitini ta'minlaydi, global axborot tizimi orqali umumiy xabardorlik hissini oshiradi. Ommaviy madaniyat ta'lim tizimini yaxshilash va jahondagi bir qator davlatlarda rivojlangan tizimlardan foydalanish imkonini ham beradi. Xususan, Finlandiya, Amerika, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimlaridan bugungi kunda ko'plab mamlakatlar foydalanishmoqda.

Bizga ma'lumki, ommaviy madaniyat ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning insoniyat uchun salbiy jihatlari ham ko'rsatib o'tmaslikning iloji yo'q. Ma'lumki, har bir jamiyatda o'ziga xos madaniyat shakllangan bo'lib, uni saqlab qolish va rivojlantirishni har bir xalq o'zining burchi deb biladi. Lekin bugungi kun globallashuv jarayonidagi ommaviy madaniyatning ayrim jihatlari shakllanishi ko'plab milliy madaniyatlarning kamsitilish darajasiga va bu orqali ushbu madaniyatlarning yo'q bo'lib ketish darajasiga etib borishi mumkin, bu esa jamiyat ichida birdamlikni yo'qolishiga olib keladi. Bu holat esa bugungi globallashuvi zamonida ommaviy madaniyatga nisbatan xushyor va ancha sezgir bo'lishni talab etadi.

Ommaviy madaniyatning axloqiy jihatlari xalq ongiga, ularning xulq-atvoriga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida nafaqat jamiyatshunos olimlar balki siyosatchi va faylasuflar hamda butun bir xalq ommasi mulohazasida bo'lishi va kelajak uchun manfaatli bo'ladigan yangi-yangi konsepsiyalarni yaratishni va ularni ilgari surishni taqozo etadi. Shuningdek ommaviy madaniyat shakllanishi insoniyat olamida maxfiylikning yemirilishi ya'ni jamiyatdagi mashhur shaxslarning shaxsiy hayotiga aralashish, ularning maxfiy ma'lumotlarini oshkora qilish va bu orqali ularning ruhiy hamda jismoniy salomatligining buzilishiga olib keladi.

Ayniqsa, bugungi kun axborot texnologiyalari asrida ommaviy madaniyatning har qanday salbiy ko'rinishlari ijtimoiy tarmoqlar orqali keng quloq yoymoqda. Insonlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zlarining muvaffaqiyatlarini bo'lishadilar, bu esa uni tomoshabinlarning ko'pchiligida stress holatlarini, umidsizlik, o'z hayotidan va yashash muhitidan qoniqmaslik hissini uyg'otmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ommaviy madaniyatning ijobiy tomonlari ko'p bo'lsa-da, jamiyatga ushbu tushunchaning insoniyat olamiga salbiy ta'sir ko'rsatish xususiyatlarini ham ko'rishimiz mumkin. Ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirini kamaytirishimiz va uni imkon qadar bartaraf qilishimiz uchun biz ommaviy madaniyat ta'sirini tanqidiy tahlil qilgan holda uni sidqidildan o'rganmog'imiz va uni targ'ib qilinishida jamiyatimizning har bir shaxsi uchun muhimligini anglamog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barri Brummet. Rhetorical Dimensions of Popular Culture(Ommaviy madaniyatning ritorik o'lchovlari). — Alabama universiteti matbuoti, 1991-yil
2. Saidov U. “Olomon adabiyoti”, “Tafakkur” jurnali, 2008, №2, 5-bet.
3. Qudratxo'jayev Sh.T. Global tarmoqning media imkoniyatlari. O'zbekiston matbuoti, 2010-yil 1-son
4. Madrahimova F. “Ommaviy madaniyat” va uning mafkuraviy tahdid sifatidagi talqini. //Ilm sarchashmalari. No 3. 2013.